

Dastur haqida

2008 yilda Germaniya Federativ Respublikasining **Tashqi ishlar vazirligi** chet eldagi maktablar bilan hamkorlikni kuchaytirish va o'quv dasturlarida nemis tilini chet tili sifatida mustahkam o'rnatish maqsadida "Maktablar: Kelajak hamkorlari" (PASCH) hamkorlik maktablari tashabbusini boshladi. PASCH tashabbusining muhim qismi **Nemis akademik almashinuv xizmati (DAAD)** tomonidan tashkil etiladigan "Chet eldagi nemis va hamkor maktablarini qo'llab-quvvatlash tashabbusi" (BIDS) hisoblanadi.

BIDS loyihasi oliy ta'lim muassasalari bilan chet eldagi nemis maktablari va nemis tili diplomiga ega maktablar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. Shu çerçevede, DAAD bizning BIDS loyihamizni ham moliyaviy qo'llab-quvvatlamogda.

Ushbu masal bo'yicha Yevropa-Universitāti Viadrina (EUV) asosan Armaniston, Bolgariya, Gruziya, Polsha, Ukraina va O'zbekistondagi chet el maktablari va nemis tili diplomiga ega maktablar bilan hamkorlik qiladi.

BIDS nima uchun sizga qiziqarli?

Siz hali ham bilmayapsizmi

... **O'QISHNI QAYERDA** boshlashingizni?

... **NIMANI** o'rganishni xohlashingizni?

Biz sizni yo'nalishingizni topishingizda qo'llab-quvvatlaymiz va Brandenburg yerida o'qishga qaror qilishingiz uchun sizni rag'batlantiramiz!

✓ **O'qishni boshlash uchun yordamga muhtojmisiz?**

Biz sizga maslahat va qo'llab-quvvatlash takliflarimiz bilan yoningizdamiz!

✓ **Moliyaviy yordamga muhtojmisiz?**

Bizning motivatsiya stipendiyamizga ariza bering!



Aloqa uchun

Yevropa-Universitāti Viadrina

Ro'yxatdan o'tish va so'rovlar uchun murojaat qiling:

Maria Krug-Firstbrook

BIDS loyihasi koordinatori

bids@europa-uni.de

Große Scharrnstraße 59

15230 Frankfurt (Oder)



BIDS

Yevropa-Universiteti Viadrina

Chet eldagi nemis maktablari va hamkor maktablar qo'llab-quvvatlash tashabbusi



EUROPA-UNIVERSITÄT
VIADRINA
FRANKFURT (ODER)



DAAD
Deutscher Akademischer Austauschdienst
German Academic Exchange Service

Universitet haqida

Frankfurt (Oder) shahrining **Viadrina Universiteti**, nemis-polsha chegarasida joylashgan bo'lib, o'zining 4000 ga yaqin talabalariga madaniyat, iqtisod va huquqshunoslik sohalarida fanlararo ta'lim taklif etadi.

Zamonaviy binolardagi kichik sinflar ta'lim muvaffaqiyatiga sezilarli hissa qo'shadi. Turli xil chet tillaridagi dasturlari va ikki yoki uch tomonlama diplom olish imkoniyatlari bilan universitetning xalqaro yo'nalishi har yili ko'plab mahalliy va xorijiy talabalarni Oder daryosi bo'yidagi shaharga jalb qiladi.



Bizning ta'lim dasturlarimiz

Iqtisodiyot fakulteti

- Bakalavr "Xalqaro biznes boshqaruvi"
- Xalqaro biznes boshqaruvi (ingliz tilida)
- Huquq va Iqtisodiyot
- Audit (Dual Ta'lim)

Huquq fakulteti

- Nemis huquqi (9 Semestr)
- Ikki tomonlama diplom: "Nemis – Polsha huquqi"
- Bakalavr Huquq va Iqtisodiyot
- Bakalavr Huquq va Siyosat
- Bakalavr | Magistr "Nemis va Polsha huquqi"

Madaniyatshunoslik fakulteti

- Bakalavr Mdaniyatshunoslik
- Tanlov yo'nalishlari: Madaniyat tarixi, Adabiyotshunoslik, Tilshunoslik, Qiyosiy ijtimoiy fanlar
- Bakalavr "Madaniy va ijtimoiy tadqiqotlar" (ingliz tilida)
- Bakalavr "Huquq va siyosat"
- Bakalavr "Polshashunoslik"



BIDS Sinov-Ta'limi

Biz maktab o'quvchilarini Frankfurt (Oder)ga Viadrina bilan shaxsan tanishishlari uchun taklif qilamiz..

Yevropa-Universitāti Viadrina sinov o'quvi uchun sayohat, ovqatlanish va yashash xarajatlarini qoplanadi.

2008 yildan beri biz har yili PASCH maktablarining so'nggi sinf o'quvchilarini qabul qilamiz. Turli xil tadbirlar bilan boyitilgan sinov o'quvi haftasida bo'lajak abituriyentlar universitetimizdagi kundalik hayotni tatib ko'rish va Viadrining turli xil o'quv dasturlari haqida bevosita ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ro'yxatdan o'tish va so'rovlar uchun: bids@europa-uni.de
Qo'shimcha ma'lumotlar uchun: <https://www.europa-uni.de/de/internationalitaet/incoming/studieninteressierte/bids-internationale-partnerschulen/index.html>

Biz maktab o'quvchilariga quyidagi imkoniyatlarni taklif etamiz...

- Frankfurt (Oder) va Slubicedagi universitet kampusini hamda atrof-muhitga sayohat;
- bizning turli xil o'quv dasturlarimiz haqida ma'lumot olish;
- akademik darslarda qatnashish;
- talabalar bilan uchrashish;
- dunyoning turli burchaklaridan kelgan o'qituvchilar va talabalar bilan aloqa bo'lish va ma'lumotlar almashish;
- madaniyatlararo va akademik treninglarda qatnashish;
- atrof-muhitga sayohatlar va Berlindagi turli xil madaniy dasturlardan bahramand bo'lish.

BIDS Motivatsiya stipendiyasi

Brandenburg yerida o'qish arziydi.

PASCH maktablari bitiruvchilarining universitetimizda o'qishni boshlashlarini osonlashtirish uchun biz ularni dastlabki bosqichda qo'llab-quvvatlamogchimiz. Buning uchun **Viadrina** chet eldagi PASCH maktablari bitiruvchilari orasidan yuqori natijalarga erishgan va faol talabalarga stipendiyalar taqdim etadi..

Motivatsiya stipendiyasi haqida tezkor ma'lumotlar:

- Stipendiya miqdori: oyiga 450 yevro
- Davomiylik: 1-o'quv semestri, uzaytirish mumkin
- Ariza berish bo'yicha barcha ma'lumotlarni Viadrina veb-saytida topasiz

Stipendiyalar Deutsche Akademische Austauschdienst (DAAD) mablag'lari hisobidan, Tashqi ishlar vazirligi byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi.

Maslahat va qo'llab-quvvatlash

Biz PASCH maktablari va ta'lim yarmarkalarida Yevropa-Universitāti Viadrina haqida ma'lumot beramiz. Maktab sinflari har doim bizni kutib olishga taklif qilinadi va biz ma'lumot materiallarini yuborishdan mamnunmiz. Bundan tashqari, biz chet eldagi nemis maktablari va nemis tili diplomiga ega maktablar o'quvchilariga o'quv yo'nalishini tanlash, ariza berish va stipendiyalar bo'yicha yordam beramiz va xorijiy talabalarni qo'llab-quvvatlaymiz..

